

turizm sohasidagi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, turizmdan tushadigan daromadlarni adolatli taqsimlash orqali qo'llab-quvvatlanmoqda.

Infratuzilmani rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi, bu barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yo'llar, ko'priklar, kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilishni, turistlarning yashashi va dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratishni, shuningdek, ekologik toza transport turlaridan foydalanishni rag'batlantiruvchi jamoat transporti tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Barqaror turizmni amalga oshirish misollari ekomehmonxonalar tashkil etish va ekomarshrutlarni rivojlantirishni, shuningdek, hunarmandchilik markazlarini tashkil etish va hunarmandchilik san'ati bo'yicha mahorat darslarini o'tkazish orqali hunarmandlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish madaniy va tabiiy merosni saqlash, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://invest.gov.uz/ru/investor/tourism/>
2. Obidjon Xamidov. Tourism Sector in Uzbekistan and its Growth Prospects. International congress on Eurasian economies 2023. pp.401-404
3. <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>
4. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection>
5. Khusniddin Egamnazarov. Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, № 10-son, 2023-yil, 102-105 bb.

*Sarvarbek MIRZAYEV,
"University of Economics and Pedagogy NOTM",
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

O'ZBEKISTONDA TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANISH OMILLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirishning asosiy omillari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasining rivojlanishi, tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish, vizasiz rejimning joriy etilishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim yo'nalishlar o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida 2021–2025-yillarda turistlar oqimi va turizm daromadlarining sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Shu bilan birga, hududiy nomutanosiblik, xizmatlar sifati va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi qayd etildi. Tadqiqot natijalari turizmni yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va hududiy salohiyatdan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** turizm, infratuzilma, investitsiya, marketing, rivojlanish.*

***Аннотация.** В данной статье комплексно проанализированы основные факторы развития туристической деятельности в Узбекистане. В ходе исследования рассмотрены*

такие ключевые направления, как развитие туристической инфраструктуры, эффективное использование историко-культурного наследия, внедрение безвизового режима и привлечение иностранных инвестиций. На основе статистических данных выявлено значительное увеличение туристического потока и доходов от туризма в 2021–2025 годах. Вместе с тем отмечены проблемы, связанные с региональной неравномерностью, качеством услуг и нехваткой квалифицированных кадров. Результаты исследования показывают необходимость дальнейшего внедрения цифровых технологий, совершенствования маркетинговых стратегий и эффективного использования регионального потенциала для устойчивого развития туризма.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, инвестиции, маркетинг, развитие.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the key factors influencing the development of tourism activities in Uzbekistan. The study examines important areas such as the development of tourism infrastructure, effective use of historical and cultural heritage, implementation of a visa-free regime, and attraction of foreign investment. Based on statistical data, a significant increase in tourist arrivals and tourism revenues in 2021–2025 was identified. At the same time, challenges such as regional disparities, service quality issues, and a shortage of qualified personnel were highlighted. The findings emphasize the need to expand digital technologies, improve marketing strategies, and effectively utilize regional potential to ensure sustainable tourism development in Uzbekistan.

Keywords: tourism, infrastructure, investment, marketing, development.

O‘zbekistonda turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, xorijiy fuqarolarni oqimining ko‘payishi, xizmatlar sifatini oshirish va xorijiy investitsiyalar orqali tez rivojlanishga olib kelmoqda. Milliy madaniyat merosi - Samarqand, Buxoro va Xiva kabi YuNESKO ro‘yxatiga kiruvchi shaharlar turistlarni jalb qiladi. Iqtisodiy islohotlar natijasida vizasiz rejimni joriy etilgani, turizm infrastrukturasi kengayishi va marketing strategiyasi samarali amalga oshirilmoqda. Biroq, pandemiya oqibatlarini, transport muammolari va ekologik muhitni saqlash masalalari rivojlanishni cheklamoqda. Maqolada turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillari kompleks tahlil qilinib, rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish omillari so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Tadqiqotlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish va davlat siyosatining roli muhim omil sifatida ko‘rsatilgan[1]. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar sifatini oshirish turizm rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi ta‘kidlanadi[2]. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va marketing strategiyalarini takomillashtirish ham dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi[3]. Bundan tashqari, hududiy turizm salohiyatidan to‘liq foydalanish masalalari alohida o‘rganilgan[4].

O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish omillarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirildi. Dastlab, ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslama tahlil usuli orqali O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar tajribasi o‘rganildi. Statistik usullar yordamida turizm oqimi, daromadlar va infratuzilma rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Bundan tashqari, ekspert baholash usuli orqali soha mutaxassislarining fikrlari umumlashtirildi. Ushbu metodologiya turizm rivojiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni kompleks baholash imkonini berdi.

O‘zbekistonda turizm sohasi 2021-2025-yillar davomida bosqichma-bosqich tiklanish va o‘shish jarayonini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiyadan keyingi davrda turistlar oqimi asta-sekin balki keskin oshib borayotgani kuzatiladi. Bunda infratuzilma rivoji, vizasiz rejim kengayishi va ichki turizmning faollashuvi muhim rol o‘ynamoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda turizm ko‘rsatkichlari (2021–2025 yy.)¹⁸²

T/r	Yillar	Turistlar soni (mln)
1.	2021-yil	1,9 mln.
2.	2022-yil	5,2 mln.
3.	2023-yil	6,6 mln.
4.	2024-yil	8,2 mln.
5.	2025-yil	11,7 mln.

Jadval ma’lumotlari turizm sohasida o‘shish mavjud bo‘lsa-da, u bosqichma-bosqich va real iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish omillari o‘zaro bog‘liq va kompleks xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda turistlar sonining 1,9 mln.dan 11,7 mln. nafargacha oshgani turizm siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, vizasiz rejimning kengaytirilishi, transport infratuzilmasining yaxshilanishi va xalqaro marketing faoliyatining kuchayishi muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, muhokama jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, hududlar kesimida turizm infratuzilmasining notekis rivojlanganligi, xizmatlar sifatidagi tafovutlar va malakali kadrlar yetishmasligi soha rivojiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, turizm xizmatlarini raqamlashtirish darajasi hali yetarli emasligi qayd etildi. Umuman olganda, turizmni yanada rivojlantirish uchun hududiy salohiyatdan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish omillari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. So‘nggi yillarda turizm sohasi barqaror o‘shish dinamikasiga ega bo‘lib, 2021-2025-yillar davomida turistlar oqimi hamda turizm daromadlarida sezilarli o‘shish kuzatilgan. Bu jarayonda vizasiz rejimning kengaytirilishi, transport infratuzilmasining yaxshilanishi, tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish va xalqaro marketing faoliyatining kuchayishi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, hududlar kesimida infratuzilmaning notekis rivojlanishi, xizmatlar sifati darajasidagi tafovutlar va malakali kadrlar yetishmasligi sohaning to‘liq salohiyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, turizm xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish zarur. Umuman olganda, turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹⁸² <https://stat.uz/uz/> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga oid qarorlari, 2022.
2. UNTourism. Tourism Development Report, 2023.
3. WTTC. Travel & Tourism Economic Impact, 2022.
4. Sharipov B. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari, 2021.

Elchin RO‘ZIQULOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajor-o‘qituvchisi

RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

***Annotatsiya.** Raqamli platformalardan foydalanish turizm xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisdagi O‘zbekistonda turizm sohasida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni joriy etish orqali xizmatlar sifati, turistlar uchun qulaylik hamda soha raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli platforma, turizm, onlayn xizmatlar, innovatsiya, raqamlashtirish, turizm xizmatlari, samaradorlik, elektron turizm.*

***Аннотация.** Использование цифровых платформ играет важную роль в повышении эффективности туристических услуг. В данной тезисной работе рассматриваются вопросы повышения качества услуг, удобства для туристов и конкурентоспособности туристической отрасли Узбекистана посредством внедрения цифровых технологий и онлайн-платформ.*

***Ключевые слова:** цифровая платформа, туризм, онлайн-услуги, инновации, цифровизация, туристические услуги, эффективность, электронный туризм.*

***Abstract.** The use of digital platforms plays an important role in improving the efficiency of tourism services. This thesis discusses the issues of enhancing service quality, tourist convenience, and competitiveness of Uzbekistan’s tourism sector through the implementation of digital technologies and online platforms.*

***Keywords:** digital platform, tourism, online services, innovation, digitalization, tourism services, efficiency, e-tourism.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish va samaradorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli platformalar orqali mehmonxona bron qilish, elektron to‘lovlar, onlayn gid xizmatlari va mobil ilovalardan foydalanish turistlar uchun qulaylik yaratib, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezlashtirmoqda¹⁸³.

Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro turistlarning asosiy qismi sayohatlarni rejalashtirishda raqamli platformalardan foydalanadi¹⁸⁴. Shu sababli turizm sohasini raqamlashtirish davlatlarning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹⁸³ Qudratov G., Pardayev M. *Turizm iqtisodiyoti*. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021. – 115-b.

¹⁸⁴ United Nations World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism and Digital Transformation Report*. – Madrid, 2024. – URL: <https://www.unwto.org/> (murojaat qilingan sana: 06.05.2026).